

**TURKISTONDA IJTIMOY SOHANI RIVOJLANTIRISH ORQALI YOSHLARDA  
VATANPARVARLIK NAMUNASI SIFATIDA JADID MARIFATPARVARI MIRZO  
SIROJIDDIN HAKIM BUXORIYNING PEDAGOGIK QARASHLARI**

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada jadid ma'rifatparvarlaridan biri bo'lgan Mirzo Sirojiddinning hayoti, ta'lim-tarbiyasi, xorijiy safarlari hamda ilmiy-publitsistik faoliyati tahlil etiladi. Shuningdek, uning "Tuhfai ahli Buxoro" asarining tarixiy, ijtimoiy va pedagogik ahamiyati ochib berilgan.*

***Kalit so'zlar:** ma'rifatparvarlik, jadidchilik, publitsistika, sayohatnoma, ta'lim, tibbiyot, madaniy aloqalar.*

**РАЗВИТИЕ СОЦИАЛЬНОЙ СФЕРЫ В ТУРКЕСТАНЕ КАК ФАКТОР  
ФОРМИРОВАНИЯ ПАТРИОТИЗМА У МОЛОДЁЖИ: ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ  
ВЗГЛЯДЫ ДЖАДИДСКОГО ПРОСВЕТИТЕЛЯ МИРЗО СИРОДЖИДДИНА  
ХАКИМА БУХАРСКОГО**

***Аннотация.** В данной статье анализируются жизнь, образование, зарубежные путешествия и научно-публицистическая деятельность одного из представителей джадидского просветительства Мирзо Сироджиддина. Также раскрывается историческое, социальное и педагогическое значение его произведения «Тухфай ахли Бухоро».*

***Ключевые слова:** просветительство, джадидизм, публицистика, путевые заметки, образование, медицина, культурные связи.*

**DEVELOPMENT OF THE SOCIAL SPHERE IN TURKESTAN AS A FACTOR IN  
FOSTERING PATRIOTISM AMONG YOUTH: PEDAGOGICAL VIEWS OF THE  
JADID EDUCATOR MIRZO SIROJIDDIN HAKIM BUKHARI**

***Abstract.** This article analyzes the life, education, foreign travels, and scientific-publicistic activities of Mirzo Sirojiddin, one of the prominent representatives of Jadid enlightenment. It also highlights the historical, social, and pedagogical significance of his work "Tuhfai ahli Bukhoro".*

***Keywords:** enlightenment, Jadidism, journalism, travelogue, education, medicine, cultural relations.*

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda jadidchilik harakati jamiyatni modernizatsiya qilish, ilm-fan va ta'limni rivojlantirishda muhim rol o'ynadi. Ana shu davr ma'rifatparvarlari orasida Mirzo Sirojiddin o'zining keng qamrovli bilimlari, xorijiy tajribani o'rganishga bo'lgan intilishi va publitsistik faoliyati bilan alohida ajralib turadi.

Ma'rifatparvar, tabib va publitsist. 1877 yil 23 oktabrda Ismoilxo'ja otaliq mahallasida (hozirgi Mehtar Anbar ko'chasi) Hoji Abdurauf Mirzoxurdboy savdogar oilasida dunyoga kelgan.

Hoji Abdurauf o'g'li Sirojiddin 10 yoshga to'lganida, axloq, tarix, adabiyot, riyoziyot hamda arab tilini o'rganishi uchun shaxsiy muallim tayinlaydi. 1889 yilda 12 yoshli Mirzo Sirojiddin otasidan savdo ishini va rus tilini o'rgangan. 1890-1891 yillarda Mirzo Sirojiddin Buxoro shahrida ochilgan rus-tuzem maktabida o'qib, geografiya, ingliz tili va buxgalterlik ishini o'rgangan. Bundan bilish mumkinki Mirzo Sirojiddinning yoshligidan boshlab tizimli va ko'p qirrali ta'lim olganini ko'rsatadi. Xususan, uning erta yoshdan shaxsiy muallim qo'lida axloqiy, gumanitar va aniq fanlarni o'rganishi unda mustahkam intellektual poydevor shakllanishiga xizmat qilgan.

Otasidan savdo ishlari va rus tilini o'zlashtirgani esa amaliy hayotiy ko'nikmalar bilan bir qatorda zamonaviy bilimlarga ochiqligini namoyon etadi. Shuningdek, rus-tuzem maktabida tahsil olishi orqali geografiya, ingliz tili va buxgalteriya kabi fanlarni egallashi uning dunyoqarashini kengaytirib, keyingi ma'rifatparvarlik faoliyati uchun muhim tayyorgarlik bosqichi bo'lib xizmat qilgan.

1891 yilda Hoji Abdurauf Mirzoxurd Parijda o'qib kelgan o'zbek o'qituvchisini 14 yoshli o'g'liga fransuz tilini o'rgatishi uchun yollagan va Mirzo Sirojiddin 6 oyda fransuz tilini o'rgangan. 1892 yil Sirojiddin fikh asoslarini o'zlashtirib olgan. Mirzo Sirojiddinning chet elga sayohati 1902 yil 5 iyunda boshlangan. Sayohatlari davomida Boku, Botumi, Istanbul, Vena, Sofiya, Saraevo, Budapesht, Berlin, Belgrad, Parij, London, Bern, syurix, Marsel, Varshava, Sankt-Peterburg va Moskva shaharlarida bo'lib, sanoat korxonolari, universitet, muzey, kutubxona va kasalxonalar faoliyati bilan yaqindan tanishgan. 1903 yilning 5 yanvarida Buxoroga qaytib kelgan va shu yilning fevral oyida Eronga jo'nab ketgan. 8 oy Sabzavor shahrida tasavvuf ilmini o'rgangan. 1905 yil 16 iyunda Buxoroga qaytib kelgan. 1906 yil yana Eronga ketib, Tehron shahridagi amerikacha tibbiyot kollejiga o'qishga kirgan. O'qishini tamomlab diplom olgach, bir muddat chel elda tabiblik qilib yurgan. 1909 yil dekabrda Buxoroga qaytgan.

Mirzo Sirojiddinning dunyoqarashi shakllanishida uning xorijiy safarlari hal qiluvchi ahamiyat kasb etganini ko'rsatadi. U qisqa vaqt ichida Yevropa va Osiyoning yirik ilmiy-madaniy markazlarida bo'lib, sanoat, ta'lim va tibbiyot tizimlarini bevosita kuzatishi orqali ilg'or tajribalarni o'zlashtirgan. Ayniqsa, universitetlar, muzeylar va kasalxonalar faoliyati bilan tanishishi unda zamonaviy ilm-fan va amaliyotga nisbatan chuqur qiziqish uyg'otgan. Shu bilan birga, uning Eronda tasavvuf ilmini o'rganishi Sharqona ma'naviy merosni ham chuqur anglashga xizmat qilgan bo'lsa, Tehrondagi tibbiyot kollejida tahsil olishi uni professional tabib sifatida shakllantirdi. Umuman olganda, mazkur safarlar Mirzo Sirojiddinning nafaqat ilmiy salohiyatini oshirdi, balki uni Sharq va G'arb tajribalarini uyg'unlashtira oladigan yetuk ma'rifatparvar sifatida kamol toptirdi.

Mirzo Sirojiddin 1902-1909 yillardagi sayohatlari asosida 1910 yilda "Tuhfai ahli Buxoro" asarini yozgan. Esdaliklar tarzida yozilgan ushbu asarida Osiyo va Yevropa mamlakatlarining tabiati, tarixi, madaniyati, sanoati hamda ularning taraqqiyoti haqida ma'lumot bergan. Asar Buxoro, Afg'oniston, Eron va boshqa davlatlarning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy hayotini o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

Mirzo Sirojiddinning "Tuhfai ahli Buxoro" asari uning ko'p yillik xorijiy kuzatuvlari va ilmiy izlanishlarining mantiqiy natijasi sifatida yuzaga kelgan bo'lib, unda muallif Sharq va G'arb mamlakatlarining rivojlanish darajasini qiyosiy tahlil asosida yoritadi. Asarning esdalik shaklida yozilgani undagi ma'lumotlarning jonli, bevosita kuzatuvlarga tayangan holda berilganini ko'rsatadi. Muallif sanoat, madaniyat, ta'lim va ijtimoiy tizimlarga oid ilg'or tajribalarni tasvirlash orqali o'z davrining dolzarb muammolariga e'tibor qaratadi hamda jamiyat taraqqiyoti uchun muhim xulosalar chiqaradi. Shu jihatdan, mazkur asar nafaqat tarixiy-manba sifatida, balki ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayotni chuqur anglashga xizmat qiluvchi muhim ilmiy-adabiy meros sifatida ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Mirzo Sirojiddinning 1912-1913 yillarda "Buxoroi sharif", "Samarqand" gazetalari hamda "Oyna" jurnalida 60 dan ortiq maqolalar bilan ishtirok etgani uning faol publitsist va ma'rifat targ'ibotchisi sifatida shakllanganini yaqqol ko'rsatadi. Bu davr jadid matbuoti taraqqiyotining muhim bosqichi bo'lib, unda ilg'or fikrli ziyolilar jamiyatni yangilash, ta'lim tizimini isloh qilish va milliy ongni uyg'otishga qaratilgan g'oyalarni keng targ'ib qilganlar. Mirzo Sirojiddin ham aynan shu jarayonning faol ishtirokchilaridan biri bo'lgan.

Uning maqolalarida asosan ijtimoiy-siyosiy hayotdagi muammolar, ta'lim tizimidagi kamchiliklar, ilm-fan va madaniyatni rivojlantirish masalalari ko'tarilgan. Muallif o'z chiqishlarida jamiyat taraqqiyoti uchun zamonaviy bilimlarni egallash, xorij tajribasini o'rganish va uni mahalliy sharoitga moslashtirish zarurligini asoslab bergan. Bu jihatlar uning publitsistik faoliyatini ma'rifatparvarlik g'oyalari bilan uzviy bog'laydi.

Mirzo Sirojiddinning maqolalari uslub jihatidan sodda, tushunarli va keng ommaga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi. U murakkab ijtimoiy masalalarni ham oddiy tilda bayon etib, o'quvchilarni fikrlashga, muammolar yechimiga befarq bo'lmaslikka undagan. Bu esa uning nafaqat olim, balki mohir publitsist sifatida ham shakllanganini ko'rsatadi.

Umuman olganda, uning matbuotdagi faoliyati jadidchilik harakatining muhim tarkibiy qismi bo'lib, milliy uyg'onish, ma'naviy yuksalish va jamiyatni modernizatsiya qilish g'oyalarini targ'ib etishda katta ahamiyat kasb etgan. Mirzo Sirojiddinning publitsistik merosi bugungi kunda ham tarixiy manba sifatida qimmatli bo'lib, o'sha davr ijtimoiy tafakkurini o'rganishda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Biz ushbu maqolada Mirzo Sirojiddin Hakim Buxoriyning pedagogik qarashlari va vatanparvarlik g'oyalarini 1 jadvalga qarang.

1 jadval

<b>№</b>	<b>Yo'nalish</b>	<b>Mazmuni</b>	<b>Asosiy g'oya</b>	<b>Amaliy ahamiyati</b>
1	Ta'limga yondashuvi	Zamonaviy va an'anaviy ta'limni uyg'unlashtirish tarafdori	Ilm-fan taraqqiyotning asosiy omili	Ta'lim tizimini modernizatsiya qilish zarurligini asoslaydi
2	Ko'p tillilik	Arab, rus, fransuz, ingliz tillarini o'rganishga e'tibor	Chet tillari orqali dunyoni anglash	Global bilimlarga kirish imkonini yaratadi
3	Amaliy bilimlar	Savdo, buxgalteriya, tibbiyot kabi amaliy fanlarni o'rganish	Nazariya va amaliyot uyg'unligi	Hayotga tayyor, raqobatbardosh shaxsni shakllantiradi
4	Ilmiy dunyoqarash	Yevropa va Osiyo tajribasini o'rganish	Ilmiy tafakkur va tanqidiy yondashuv	Innovatsion fikrlashni rivojlantiradi
5	Ma'naviy tarbiya	Tasavvuf va axloqiy qadriyatlarga e'tibor	Komil insonni tarbiyalash	Axloqiy yetuklikni ta'minlaydi
6	Sog'lom turmush va tibbiyot	Tibbiyot bilimlarini targ'ib qilish	Inson salomatligi jamiyat boyligi	Sog'lom jamiyatni shakllantirishga xizmat qiladi
7	Matbuot va ma'rifat	Gazeta va jurnallar orqali xalqni o'qitish	Axborot orqali ongni uyg'otish	Ommaviy ma'rifatni rivojlantiradi

Biz ushbu jadvalda Mirzo Sirojiddin Hakim Buxoriyning o'zini va vatanini ravnaqi uchun olib brogan say harakatlarni tizimli ochib berishga xizmat qiladi.

Mirzo Sirojiddin Hakim Buxoriyning vatanparvarlik g'oyalarini hozirgi yoshlarda mujassamlashtirish uchun quyidagi 2 jadvalga qarang.

2 jadval

<b>№</b>	<b>Yo'nalish</b>	<b>Mazmuni</b>	<b>Asosiy g'oya</b>	<b>Ahamiyati</b>
1	Milliy uyg'onish	Jamiyatni jaholatdan chiqarish, ilmga undash	Ma'rifat orqali millatni yuksaltirish	Milliy ongni shakllantiradi
2	Islohotparvarlik	Ta'lim, iqtisod va ijtimoiy hayotni yangilash	Taraqqiyot uchun o'zgarish zarur	Jamiyat rivojiga turtki beradi
3	Xorij tajribasini o'rganish	Yevropa yutuqlarini o'rganib, mahalliyashtirish	O'zlashgan taraqqiyot modeli	Milliy rivojlanish strategiyasini belgilaydi

4	Matbuot orqali ta'sir	Maqolalar orqali xalq ongiga ta'sir qilish	So'z orqali jamiyatni uyg'otish	Ijtimoiy faollikni oshiradi
5	Madaniy taraqqiyot	San'at, fan va madaniyatni rivojlantirish	Millat sha'nini yuksaltirish	Milliy identitetni mustahkamlaydi
6	Vatanga xizmat	Ilm va kasb orqali jamiyatga foyda keltirish	Haqiqiy vatanparvarlik – xizmatda	Yosh avlodni mas'uliyatli qiladi

Mirzo Sirojiddin Hakim Buxoriy o'z pedagogik qarashlarida ilm-fan, amaliy bilim, ma'naviyat va global tajribani uyg'unlashtirish g'oyasini ilgari surgan bo'lsa, uning vatanparvarlik qarashlari milliy uyg'unlash, islohot va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilish tamoyillariga asoslanadi. Shu bois, uning merosi bugungi ta'lim tizimi va yoshlar tarbiyasida muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda Mirzo Sirojiddinning hayoti va faoliyati jadid ma'rifatparvarlarining asosiy g'oyalarini yaqqol aks ettiradi. U nafaqat ilm-fan va tibbiyot sohasida, balki publitsistika orqali ham jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shgan. Uning xorijiy tajribani o'rganish va uni mahalliy sharoitga tatbiq etishga intilishi bugungi kunda ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, "Tuhfai ahli Buxoro" asari tarixiy, madaniy va pedagogik manba sifatida muhim ilmiy qiymatga ega.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz". Tom I. T.: O'zbekiston NMIU, 2018. – 592 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. "Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir". Tom II. T.: O'zbekiston NMIU, 2018. – 508 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Oliy Majlisga murojaatnoma. T.: O'zbekiston, 2018. – 80 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Oliy Majlisga murojaatnoma // Xalq so'zi; 2020. 29 dekabr.
5. Mirziyoyev Sh.M. "Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi". Tom III. T.: O'zbekiston NMIU, 2019. – 396 b.
6. Abu Bakr Muhammad inb Ja'far Narshaxiy. Buroxi tarixi. Fors -tojik tilidan A.Rasulov tarjimasini. - T.: Fan, 1966. - 120 bet.
7. Abdurazzoq Samarqandiy. Matlai sa'dayn va majmaai bahrayn. Fors tilidan tarjima va izohlar muallifi Asomiddin O'rinboev. T.: Ozbekiston, 2008. III jild. Birinchi qism. - 632 bet.
8. Abdurazzoq Samarqandiy "Matlai sa'dayn va majmai bahrayn". - T.; Ozbekiston. 2008. II jild. Ikkinchi qism. - 832 bet.
9. Abdurauf Fitrat. "Najot yo'li". (Rahbari najot): Mas'ul muharrir Z.Choriev, tarjimon Sh.Vohidov. T.: Sharq. 2001. - 176 bet.
10. Ahmad ibn Mahmud Buxoriy "Tarixi Mullozoda" (Buxoro mozorlari zikri). So'zboshi, fors tilidan tarjima, izohlar mualliflari Sh.Vohidov, B.Aminov. T.: Yangi asr avlodi, 2009. - 102 bet.